

*I.Yuldashev, PhD,
Fergana state university,
Uzbekistan, Fergana city*

*I.Yuldashev, PhD,
Farg'ona davlat universiteti,
O'zbekiston, Farg'ona sh.*

THE IMPORTANCE OF SETTING UP AN EDUCATIONAL ENVIRONMENT IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYA MUHITINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Annotation: the article examines the important aspects of setting up an educational environment in educational institutions.

Keywords: education, innovation, education, pedagogical skill.

Annotatsiya: Maqolada ta'lif muassasalarida tarbiya muhitini tashkil etishning muhim jihatlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lif, innovatsiya, tarbiya, pedagogik mahorat.

Mustaqil respublikamiz uchun yosh avlodni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash hayotiy muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqqisodiy farovonligi fuqarolarning aqliy va axloqiy salohiyati hamda ularning ma'naviy darajada yuksak rivojlanishiga bog'liq.

Darhaqiqat, jamiyatimizning taraqqiy etishi, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, jahon qamjamiyatiga qo'shilishni

ta'minlaydigan huquqiy demokratik davlat qurishni yetuk va malakali kadrlarsiz hal etib bo'pmaydi. Global o'zgarishlar davrida ta'lim-tarbiyaga ehtiyoj ortib bormoqda. Chunki hayot o'zgarishlarining sur'atlari muntazam tezlashib bormoqda. Bu bir tomondan, turli xalqlar hayot sohalarida imkoniyat doirasida umumiy jihatlarni, qulayliklarni yaratib bersa, ikkinchi tomondan axborot makoni kenganini ko'rishimiz mumkin. Turli maqsad va manfaatlarga yo'naltirilgan har xil g'oya, qarashlar, uni targ'ibot qilish texnologiyalari, ijtimoiy ong va tafakkuriga ta'sir ko'rsatish maqsadida "jozibador"ligini oshirgan xolda samaradorlikka erishish uchun harakat qiladi.

Tarbiya - kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida shakllanib, rivojlanib, o'sib, avloddan-avlodga vorislik vazifasini bajarib kelgan bo'lsada, ammo har bir jamiyatda tarbiyaning mazmuni maqsadi, vazifalari, o'ziga xosligi bilan farqlanadi.

Tarbiya ijtimoiy hayot uchun zarur hodisa bo'lib, yosh avlodga ilmiy bilimlar tizimini, malaka va ko'nikmalarini maxsus metod va vositalar orqali rejali ravishda singdirib berish hamda yosh avlodni har tomonlama shakllangan etuk inson qilib tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi.

Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash muammolari dastlab xalq og'zaki ijodi, pedagogikasi, yozma yodgorliklarda, pandnomalarda mutafakkir hamda ma'rifatparvarlar asarlarining bosh mavzusini tashkil etgan.

Ta'lim-tarbiyaning yangicha modeli yangi, ya'ni hozirgi zamonda ta'lim-tarbiya sohasida dunyoda erishilgan yutuqlarga, axborot kommunikatsiya tizimi, pedagogik texnologiyalarni joriy etgan holda ta'limni amalga oshirishga, ta'lim sohasiga yangi innovatsiyalarni joriy etish davlat siyosati darajasida e'tibor berilmokda. Uning yutuqlarini esa dunyo e'tirof etmokda. Taraqqiyotimizning yangi bosqichida ta'lim tizimiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Tabiiy jarayonlar mohiyatini bilish orqali ta'lim muassasalarida tarbiya muhitini tashkil etishning ahamiyati ta'lim jarayonini samarali boshqarish, maktab

yoshidagi o'quvchi-yoshlarni xususiyatlari inobatga olish, ularning rivojlanishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish muhim hisoblanadi. Bu jarayonlar ko'proq tarbiyani ijtimoiylashtirish, o'quvchi-yoshlar tomonidan ijtimoiy individuallashuv asoslari sifatida izohlanadi. Ta'lismuassasalarida tarbiya muhitini tashkil etishning ahamiyati yana shunda ko'rindaniki, ta'lismarajonini loyihalashda o'qituvchi loyihachi va bajaruvchi sifatida loyihani amalga oshirishning qulay yo'lini tanlaydi. Bu bilan o'qituvchi o'quvchi-yoshlarga beixtiyor o'quv faoliyatiga yo'naltiruvchi usullarni, mustaqil ta'lismaklini, o'z-o'zini rivojlanishini va o'zini hurmat qilish imkoniyatlarini aniqlab tarbiyaning muhim elementlarini singdira boshlaydi. Bu o'z mohiyatiga ko'ra pedagogik faoliyatning eng muhim ikki jihatni, ya'ni, ta'lismarajon hamda tarbiya jarayonining texnologiyalashtirilishini ifodalaydi. Barkamol shaxsni shakllantirish muammosining ijtimoiy zaruriyat sifatida e'tirof etilayotganligini nazarda tutadigan bo'lsak, ta'lismarajonini tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni qaror toptirish, mazkur jarayonni texnologiyalashtirishga erishish muhim pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish – aniq maqsad va ijtimoiy g'oyaga asoslanib, talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning tashkiliy-texnik jihatdan uyuştirilishidir. Ta'lismarajonidan farqli tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda bu jarayonning samarasini qisqa muddat oralig'ida ko'ra olish imkoniyati yo'q. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, o'quvchi-yoshlar va o'qituvchi o'rtasida yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlar tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirishga nisbatan ijodiy va mas'uliyatli yondoshish zarurligini taqozo etadi.

Demak, xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniyning "Insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja beruvchi – axloq tarbiyasidur"[1] degan fikrlari bugungi kun uchun ham o'rinnlidir. Bizningcha, tarbiya muhitini tashkil etishning bugungi kundagi ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, mamlakatimizda demokratik jamiyat kurish vazifalarini amalga oshrishda ta'lim-tarbiyani tubdan isloh etish va uni modernizatsiyalashtirish muhim rol o'yaydi.

Ikkinchidan, globallashuv davrida o'kituvchining pedagogik jarayondagi asosiy vazifalari o'zgaradi. Uni boshqaruvchanlik faoliyatiga yangicha talablar qo'yiladi. Boshqarish - bu yo'naltirish, vazifa qo'yish, o'rganish, yordam berish va qo'llab-quvvatlashni hamda maslahat berish, asosiysi o'quvchi-yoshlarga tarbiya berishni o'z ichiga oladi. Ta'lim-tarbiyada donishmand va mutafakkirlarning, xalqimizning milliy ma'naviy qadriyatlariga tayanish muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, ta'lim-tarbiya jaryonidagi o'zgarishlar yoshlar oldiga ham muhim vazifa qo'yadi. Ya'ni tarbiyali shaxslar sifatida davlat va jamiyatga o'z xissasini qo'shadigan avlod etishib chiqadi.

Adabiyotlar:

1. А.Авлоний. Turkiy guliston yohud axloq. Toshkent. 2017yil, 9-b.
2. Парпиев, О., Абдурахмонов, Ш., & Файратжон, Ф. (2022). ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯЛАШ ЖАРАЁНИДА ЁШЛАРНИНГ ҲАРАКАТ СИФАТЛАРИНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ АҲАМИЯТЛИ ЖИҲАТЛАРИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 3), 103-108.
3. Yuldashev, I., Umaralievich, K. U., Goynazarov, G., & Abdurakhmonov, S. (2021). Innovative development strategy in the field of sports and the basics of its organization. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(11), 48-53.
4. Yuldashev, I., & Goynazarov, G. (2021). A need to improve the institutional system for increasing the social activity of young people at the stage of development. *Интернаука*, (12-3), 18-19.

5. Bobojonov, N. N. (2021, August). Pedagogical problems of forming a sense of loyalty to the national army in students. In *Archive of Conferences* (pp. 104-109).
6. BOBOJONOV, N., & MADORIPOV, O. BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY-AMALIY JISMONIY TAYYORGARLIGI. *СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЕСТНИК* Учредители: *Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука"*, 74-75.
7. Матмусаева, М. А. (2016). ТАЛАБАЛАР ПОРТФОЛИОЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШ ШАРОИТЛАРИ. In *Сборники конференций НИЦ Социосфера* (No. 9, pp. 129-131). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
8. Матмусаева, М. А. (2016). ТАЛАБАЛАРНИНГ ЎҚУВ ФАОЛИЯТЛАРИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШНИНГ ИННОВАЦИОН ХАРАКТЕРИ. In *Сборники конференций НИЦ Социосфера* (No. 9, pp. 127-128). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
9. Yuldashev, I. A. (2020). Pedagogical Bases Of Formation Of Social Activity In Pedagogical Sciences. *Теория и практика современной науки*, (5), 67-69.
10. Yuldashev, I., & Toshboltaeva, N. I. (2020). Analysis Of Personality Traits In Athlete Activities. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 72-74).
11. Yuldashov, I., Parpiev, O., Makhmutaliev, A., Tukhtanazarov, I., & Umaralievich, K. U. (2021). Pedagogical bases of formation of physical culture and social culture in Youth. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(11), 54-58.